

# TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VIII son, Iyul

## SIYOSIY HUQUQLAR TUSHUNCHASI VA ULARNING HUQUQIY KAFOLATLARI

**Muxammadova Marjona Zavqiy qizi**

*O'zbekiston Milliy universiteti Yurisprudensiya:*

*Biznes huquqi yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada siyosiy huquqlar tushunchasi, ularning huquqiy mohiyati va turlari tahlil qilinadi. Siyosiy huquqlarning konstitutsiyaviy va xalqaro-huquqiy asoslari, ularni amalga oshirish va himoya qilish mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi siyosiy huquqlarni kafolatlashning amaliy jihatlari ko'rib chiqiladi hamda ularni ta'minlashdagi dolzARB muammolar va takliflar ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** siyosiy huquqlar, konstitutsiyaviy kafolat, saylov huquqi, yig'ilish erkinligi, ifoda erkinligi, huquqiy himoya, xalqaro standartlar.

**Annotation:** This article examines the concept of political rights, their legal nature, and classification. It highlights the constitutional and international legal foundations of political rights, as well as mechanisms for their implementation and protection. The study also analyzes the guarantees of political rights in the legislation of the Republic of Uzbekistan and discusses current challenges and recommendations for their effective realization.

**Keywords:** political rights, constitutional guarantees, electoral rights, freedom of assembly, freedom of expression, legal protection, international standards.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются понятие политических прав, их правовая природа и классификация. Анализируются конституционные и международно-правовые основы политических прав, а также механизмы их реализации и защиты. Особое внимание уделяется гарантиям политических прав в законодательстве Республики Узбекистан, актуальным проблемам и предложениям по их обеспечению.

**Ключевые слова:** политические права, конституционные гарантии, избирательное право, свобода собраний, свобода выражения мнений, правовая защита, международные стандарты.

**Kirish.** Inson huquq va erkinliklarini tan olish, ularni himoya qilish va kafolatlash demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgisidir. Ayniqsa, siyosiy huquqlar fuqarolarning davlat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlaydigan asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular orqali shaxs o'z siyosiy irodasini erkin bildiradi, boshqaruvda bevo sita yoki vakillar orqali qatnashadi hamda davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini shakllantirishda ishtirok etadi.

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VIII son, Iyul

Siyosiy huquqlar — bu fuqarolarning saylov huquqi, birlashish, miting va namoyishlarda qatnashish, so‘z va axborot erkinligi kabi asosiy huquqlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu huquqlar konstitutsiyaviy darajada tan olingan bo‘lib, xalqaro huquqiy hujjatlarda, jumladan, 1966-yilda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktda ham mustahkamlangan. Mazkur huquqlar faqatgina qonuniy doirada va demokratik tamoyillar asosida cheklanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda siyosiy huquqlar alohida e’tibor bilan ko‘rib chiqilgan. Fuqarolarga teng, umumiy va bevosita saylov huquqi kafolatlangan; siyosiy partiylar, jamoat birlashmalari va ommaviy axborot vositalari orqali o‘z fikrini erkin ifoda etish imkoniyati yaratilgan. Ayni vaqtda, siyosiy huquqlarning amalda to‘liq va samarali ta’minlanishi uchun zarur institutlar, qonunchilik mexanizmlari va mustaqil sud tizimining mavjudligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada siyosiy huquqlar tushunchasi, ularning huquqiy tabiatini ohib berish, milliy qonunchilikdagi kafolatlar va xalqaro huquqiy mexanizmlarni tahlil qili sh hamda ularni amalga oshirishdagi dolzARB muammolarni yoritish maqsad qilingan. Maqolada O‘zbekiston tajribasi bilan bir qatorda xalqaro tajriba ham o‘rganilib, mavjud muammolarga huquqiy va amaliy yechimlar taklif etiladi.

Siyosiy huquq va erkinliklar - fuqarolarning asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan bir guruhi (fuqarolik, shaxsiy huquq va erkinliklar, iqtisodiy huquq va erkinliklar kabilari bilan bir qatorda). Siyosiy huquq va erkinliklar fuqarolarga mamlakat ijtimoiy va siyosiy hayotida qatnashish imkonini beradi. Bu huquq va erkinliklar jamiyat va davlat boshqaruvida qatnashish huquqi, saylov huquqi, qonunlarga muvofiq, jamoat birlashmalariga uyushish, mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar o‘tkazish, axborot erkinligi, ommaviy harakatlarda ishtirok etish, ariza, taklif va shikoyatlar berish orqali davlat organlari, muassasalar yoki xalq vakillariga murojaat qilish huquqi kabilarni o‘z ichiga oladi.<sup>40</sup>

Siyosiy huquqlar - bu fuqarolarning davlat boshqaruvida bevosita yoki vakillari orqali ishtirok etishi, erkin fikr bildirish, o‘z ijtimoiy faoliyklarini miting, namoyish va yig‘ilishlarda qatnashish orqali amalga oshirish, siyosiy partiylar tuzish va ularga a’zo bo‘lish kabi huquqlarini qamrab oluvchi asosiy huquqiy institutdir. Ular har qanday demokratik jamiyatning poydevorini tashkil etadi va davlat bilan jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni tartibga soluvchi muhim vositadir.

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yilda yangilangan tahrirda Konstitutsiyasi siyosiy huquqlarni keng doirada kafolatlaydi. Xususan, fuqarolarga davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etish, muhim masalalar bo‘yicha murojaatlar kiritish, jamoat birlashmalariga a’zo bo‘lish huquqi, so‘z va fikr erkinligi kafolatlanadi.

Bundan tashqari o‘z ijtimoiy faoliyklarini yig‘ilishlar, mitinglar, namoyishlar, o‘tkazish orqali amalga oshirish huquqi tan olingan. Fuqarolar bu huquqdan qonun doirasida foydalanishlari mumkin. Har bir fuqaroning davlat organlari va mansabdor shaxslarga

<sup>40</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Siyosiy\\_huquq\\_va\\_erkinliklar](https://uz.wikipedia.org/wiki/Siyosiy_huquq_va_erkinliklar)

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VIII son, Iyul

murojaat qilish huquqi kafolatlanadi. Ularning murojaatlari ariza, taklif va shikoyat ko'rinishlarida bo'lishi mumkin. Shu qatorda, fuqarolarning siyosiy partiyalar tuzish va ularga a'zo bo'lish huquqini ta'minlaydi, bu esa ko'ppartiyaviylik tamoyilini mustahkamlaydi.

Shuningdek, Konstitutsiyaning 19-moddasida barcha fuqarolar qonun oldida teng ekani va ularning huquq va erkinliklari millat, irqi, jinsi, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi kabi belgilariga ko'ra cheklanmasligi ta'kidlanadi. Bu siyosiy huquqlarning amalga oshirilishida diskriminatsiyaga yo'l qo'yilmasligining konstitutsiyaviy kafolatidir.<sup>41</sup>

O'zbekiston Respublikasi siyosiy huquqlar bo'yicha xalqaro majburiyatlarni ham o'z zimmasiga olgan va ularni buzganlik javobgarlik belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining "Xalqaro shartnomalar to'g'risida"gi Qonunining 52-moddasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'lishi belgilangan.<sup>42</sup>

O'zbekiston Respublikasi quyidagi xalqaro hujjalarga a'zo bo'lib, ularning talablariga rioya qilish majburiyatini olgan:

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 21-moddasida har bir insonning o'z mamlakati boshqaruvida bevosita yoki erkin saylangan vakillar orqali ishtirok etish huquqi, davlat lavozimiga teng asosda kirish huquqi tan olingan.<sup>43</sup>

Bundan tashqari Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda tinch yig'lnlarga bo'lgan huquqlar tan olinadi. Bu huquqdan foydalanishda hech bir cheklashga yo'l qo'yilmaydi. Qonunga muvofiq qo'yilgan va demokratik jamiatda davlat yoki jamiat xavfsizligi, jamoat tartibi, aholi salomatligi va ma'naviyatini muhofaza etish yoki boshqa shaxslarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish uchun zarur bo'lgan cheklashlar bundan mustasno ekanligi, Har bir inson boshqalar bilan uyushish erkinligi huquqiga, shu jumladan kasaba uyushmalar tashkil etish erkinligi va o'z manfaatlarini himoya qilish uchun shunday uyushmalarga kirish huquqiga ega ekanligi, ham bevosita, ham erkin saylangan vakillar orqali davlat ishlarini yuritishda ishtirok etish, yalpi teng saylov huquqi asosida, yashirin ovoz berish orqali o'tkaziladigan va saylovchilarning erkin xohish-irodasini ta'minlaydigan chinakam davriy saylovlarda ovoz berish va saylanish, o'z mamlakatida umumiylenglik shartlarida davlat xizmatiga kirish kabi huquqlari hamda ularning ta'minlanish tartiblari belgilab qo'yilgan.<sup>44</sup>

Xulosa qilib aytganda, siyosiy huquqlar har qanday demokratik jamiatning ajralmas tarkibiy qismidir. Ular fuqarolarning davlat boshqaruvida bevosita yoki bilvosita ishtirok etish huquqini ta'minlab, xalq hokimiyatchiligi prinsipining amalda ro'yobga chiqishiga xizmat qiladi. Saylov huquqi, so'z va fikr erkinligi, birlashish hamda yig'ilish o'tkazish

<sup>41</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya si

<sup>42</sup> O'zbekiston Respublikasining "Xalqaro shartnomalar to'g'risida"gi Qonuni

<sup>43</sup> Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi

<sup>44</sup> Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt

## **TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR**

*VIII son, Iyul*

erkinligi kabi siyosiy huquqlar shaxsning siyosiy faolligini, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'sirini kuchaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar siyosiy huquqlarni tan oladi va ularni huquqiy jihatdan kafolatlaydi. Shu bilan birga, siyosiy huquqlarni real hayotda to'liq va samarali amalga oshirishda ba'zi muammolar ham mavjud. Jumladan, saylov jarayonlarida shaffoflik va tenglikni ta'minlash, fuqarolarning siyosiy ongini oshirish, raqamli axborot muhitida siyosiy erkinliklarni himoya qilish dolzARB masalalardan sanaladi. Siyosiy huquqlarni samarali himoya qilish va ularni real hayotda to'laqonli amalga oshirish O'zbekistonning demokratik taraqqiyot yo'lida muhim bo'sqich hisoblanadi. Bu esa kuchli huquqiy baza, adolatli amaliyot va fuqarolarning faolligiga tayanuvchi barqaror siyosiy muhitni shakllantirishni taqozo etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Siyosiy\\_huquq\\_va\\_erkinliklar](https://uz.wikipedia.org/wiki/Siyosiy_huquq_va_erkinliklar)
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
3. O'zbekiston Respublikasining "Xalqaro shartnomalar to'g'risida"gi Qonuni
4. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi
5. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt